



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINING O'RNI VA AHAMIYATI.

Quldosheva Nigora Batirovna

*Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani 43-umum ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining o'rni va ahamiyati, o'qish darslarida qo'llaniladigan metodlar, o'qish darsliklarida berilgan mavzular va ularning o'quvchilarga tarbiyaviy ta'siri, o'qish darslari jarayonida "O'qish kitobining ahamiyati" haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, savodxonlik, izohli o'qish, o'qish malakalari, o'qish metodlari, didaktik talablar.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.

Аннотация: В данной статье рассмотрены роль и значение уроков чтения в начальных классах, методы, используемые на уроках чтения, темы, заданные в учебниках по чтению, и их воспитательное воздействие на учащихся, «Значение книги для чтения» в ходе уроков чтения.

Ключевые слова: начальное образование, грамотность, объяснительное чтение, навыки чтения, приемы чтения, дидактические требования.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF READING LESSONS IN PRIMARY GRADES

Annotation: In this article, the role and importance of reading lessons in primary grades, methods used in reading lessons, topics given in reading textbooks and their educational impact on students, "The Importance of a Reading Book" in the course of reading lessons are discussed.

Key words: primary education, literacy, explanatory reading, reading skills, reading methods, didactic requirements.

Mustaqillik yillarida barcha sohalar kabi ta'lim va tarbiya sohasida ham katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, bolalarimizning hozirgi zamonning munosib farzandlari qilib tarbiyalash maqsadida ta'lim sohasida tubdan o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Bu borada, albatta, boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyos. Bizga ma'lumki, boshlang'ich sinflarda o'qish darslari o'z mohiyati, maqsadi, vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida beqiyos o'rin tutadi. Negaki, uning zaminida savodxonlik savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni trio, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat Ta'lim





Standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalarida bilimlarini egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik va mustaqillik va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darsliklarida vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzularga keng o'rin berilgan. Masalan, 4-sinf o'qish darsligi misolida oladigan bo'lsak, Abdulla Oripovning "Iqboli buyuksan" she'ri, Normurod Norqobilovning "Xarita" hikoyasida vatanparvarlik, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari ochib berilgan.

Shuningdek, o'qish darsliklarida ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular, Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan mavzular kiritilgan. Jumladan, 4-sinf o'qish darsligidagi "Buyuk allomalarga munosib vorislarmiz" bo'limida "Najmiddin Kubro", "Sulton Mahmud va Beruniy" (Nizomiy Aruziy Samarqandiy), "Ibn Sino bilan tabib", "Pahlavon va shoir" (Hamidjon Hamidov), "Hidi, tilimi va mazasidan" kabi asarlarda Najmiddin Kubro, Beruniy, Ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Bobur kabi buyuk bobolarimiz haqida so'z ketadi. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari oldiga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishni shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy-estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini boyitish.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining samarali bo'lishi o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini to'g'ri va puxta egallash va takomillashtirib borishlari bilan bog'liq. O'qish ko'nikmalari savod o'rgatish jarayonida shakllanadi va o'qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi.





O'qish malakalari deganda badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish tushuniladi.

O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qishning uch turidan foydalaniladi:

1. Ovozli o'qish.

2. Ichda o'qish.

3. Shivirlab o'qish.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga ham bog'liq. Binobarin, o'qitish metodlari ham fannig o'zi kabi doimiy rivojlanishda bo'ladi. O'qish darslarida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri bu izohli o'qish metodi sanaladi. Izohli o'qish metodiga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K.D. Ushinskiy asos solgan u o'qishda o'quvchilarni "ongli, tushunib, o'ylab o'qishga" o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni "Izohli o'qish" deb nomlaydi.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, sinf yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo'lmasa-da amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o'qib o'rganiladi. O'qish darsliklariga, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq janridagi asarlar kiritilgan. Bundan tashqari ilmiy-ommabop asarlar ham o'qitiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqi o'stiriladi.

Umuman olganda, "O'qish kitobi" darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularning lug'atini boyitish va, og'zaki va yozma nutqini o'stirish trio shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Shu. Yo'ldosheva, Shu. Sariyev

Ona tili o'qitish metodikasi "Nosir" nashriyoti 2009

2. Asqar Zunnunov va boshqalar

Adabiyot o'qitish metodikasi. -T: "O'qituvchi", 1992

3. S. Matchonov, A. Shojalilov, X. G'ulomova, Shu. Sariyev, Z. Dolimov

"O'qish kitobi" (4-sinf uchun darslik). -T: "Yangiyul Poligraph Servise". 2020.

